



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2026-YIL — MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 17-aprel, № 76 (9247)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## ARMIAMIZ NUFUZI YANADA OSHIRILIB, VATAN HIMOYACHILARI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLANADI

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevga 16-aprel kuni harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, rezerv va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, 9-may — Xotira va Qadrlash kuni ta'ayyorgarlik ko'rish yuzasidan axborot berildi.**

Avvalo, armiyaning jangovar shayligi va tayyorgarligini mustahkamlash, shaxsiy tarkibga yangi tizim asosida ta'lim berish va kasbga tayyorlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berildi.

Xususan, jangovar shayliq yo'nalishida qo'shinlarda majmuaviy strategik va qo'mondonlik shtab o'quvlarini, yig'in, dala chiqishlari va o'quv kurslari tizim ravishda o'tkazib kelinayotgani, bunda shaxsiy tarkibda axloqiy-ruhiy, real jangovar vaziyatlarda qo'rquv va emotsiyalarni boshqarish hamda dadil harakatlanish olish kabi muhim jangovar sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani qayd etildi.

Zamonaviy jangovar harakatlar tahlilidan kelib chiqib barcha o'quv, trening hamda mashg'ulotlarda jang olib borishning

yangi usul va shakllari o'zlashtirilayotgani, bo'linmalarining mobilligini, jangovar imkoniyatlarini va qo'yilgan vazifalarni mustaqil bajarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar ko'rilayotgani yuzasidan axborot berildi.

Har yili mamlakatimizda 9-may — Xotira va Qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi yurtimizda tinchlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash, Vatani ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlar xotirasini yod etish, bugun oramizda sog'omon yashayotgan urush va mehnat faxriylariga g'amxo'rlik ko'rsatishning yorqin amaliy ifodasidir.

Joriy yilda bayram munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 30 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofotini to'lash taklif qilindi.



## UY-JOY KOMMUNAL XIZMAT KO'RSATISH SOHASI XODIMLARIGA

Qadri yurtdoshlar!

Avvalo, siz, azizlarni 18-aprel — O'zbekiston Respublikasi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

O'z xizmat joyida kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan fidokorona mehnat qilib, aholi, tashkilot va muassasalarning qulay va zamonaviy sharoitlarda yashashi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlab kelayotgan sizlar kabi mohir muhandis va ishchilar, usta va chilangarlar, mexanik va texnologlar, mutaxassislar va faxriylarga, ko'p millatli soha xodimlariga ushbu quvonchli ayyomda chuqur hurmatimiz va ezgu tilaklarimizni bildirib, chin dildan rahmatlar aytamiz.

Aziz do'stlar!

Keyingi yillarda mamlakatimizda barcha soha va tarmoqlar qatori xalqimiz turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutib kelayotgan kommunal tizimda ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ilg'or xalqaro tajribalar

asosida uy-joylarga xizmat ko'rsatish bo'yicha boshqaruv servis kompaniyalari tashkil etilgani, ularga davlatimiz tomonidan zarur imtiyoz va kafolatlar berilgani xizmatlar sifatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bu haqda so'z yuritganda, mamlakatimizdagi 45 mingta ko'p qavatli uyning 90 foizdan ortig'iga 1 mingdan ziyod ana shunday tashkilotlar xizmat ko'rsatayotgani, so'nggi 9 yilda 3 trillion 700 milliard so'm mablag' hisobidan 51 mingga yaqin uylar ta'mirlanib, 3 ming 500 ta lift yangisiga almashtirilganini ta'kidlash lozim.

Sohada raqamlashtirish jarayonlari jadal olib borilayotgani tufayli salkam 42 mingta ko'p qavatli uy va 1 million 500 ming nafardan ortiq mulkdorlar "Mening uyim" billing tizimida ro'yxatga olindi. Bu esa boshqaruv tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni bevosita kuzatib, ularning faoliyatini baholab borish imkonini bermoqda.

Bundan tashqari, 3 ming 400 ta ichimlik va oqova suv inshooti

va 42 ming kilometrdan ziyod suv tarmoqlari barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Natijada yurtimizda aholini ichimlik suvi bilan markazlashgan tizim orqali ta'minlash darajasi 2017-yildagi 63 foizdan hozirgi vaqtda qariyb 83 foizga yetdi. Issiqlik ta'minoti sohasidagi keng ko'lami ishlar hisobidan qariyb 100 ta markaziy va mahalliy qozonxonada, 1276 kilometr issiqlik tarmoqlari ta'mirlandi va modernizatsiya qilindi.

Ayniqsa, 3 ming 800 dan ziyod ko'p qavatli uy va 371 ta ijtimoiy obyekt ushbu tizimga ulanganini diqqatga sazovordir.

Ayni vaqtda aholimizning hayotiy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha kommunal xizmat ko'rsatish sohasi oldida ham ulkan vazifalar turibdi. Jumladan, 2030-yilgacha aholini ichimlik suvi bilan markazlashgan tarmoqlar orqali ta'minlash darajasini 90 foizga yetkazishni rejalashtirganmiz. Shuningdek, 103 ta qozonxonada, 1 ming 600 kilometr issiqlik tarmoqlari barpo etiladi va rekonstruksiya qilinadi. Davlat-xususiy sheriklik tamoyili

asosida va xalqaro moliya institutlari ishtirokida esa 13 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bularning hisobidan markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi hozirgi 37 foizdan 58 foizga yetkaziladi.

Sizlar o'zingizning bor kuch-g'ayratingiz, bilim va tajribangizni safarbar etib, ana shunday ulkan vazifalarni ado etishga munosib hissa qo'shasizlar, deb ishonaman.

O'z navbatida, mamlakatimizda kommunal sohaning moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash, tizimda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi va xodimlar mehnatini rag'batlantirish bundan buyuk davlatimizning e'tibor markazida bo'ladi.

Sizlarni kasb bayramingiz bilan yana bir bor chin yurakdan tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, mehnat faoliyatingizda yutuq va omadlar, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman.

**Shavkat MIRZIYOYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

18-aprel — Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kuni

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHGA QARATILGAN BUNYODKORLIK

Poytaxtimizda 18-aprel — Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kuni munosabati bilan tadbir bo'lib o'tdi. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri o'rinbosari Jalol Arashov uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish yo'nalishida olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar va yangilanishlarning ahamiyatini aholi yuksak qadrlayotganini alohida ta'kidladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan bayram tabrigi o'qib eshittirildi.



1 million 608 mingdan ziyod xonadonlar mavjud.

— Uy-joy fondini sifatli saqlash maqsadida tizimda ta'mirlash ishlari hajmi yildan-yilga ortib boryapti, — deydi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri o'rinbosari Ozoda Jo'rayeva. — So'nggi yillarda ko'p kvartirali uylarni ta'mirlash, aholiga qulay sharoitlar yaratish maqsadida liftlarni yangilash ishlari alohida e'tibor qaratilyapti. Birgina 2025-2026-yillarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 9 812 ta uy ta'mirlangan bo'lsa, qo'shimcha ravishda boshqaruv tashkilotlari tomonidan 6 457 ta uyda 117 mird. so'mlik ishlar bajarildi.



## MADANIYAT VA TURIZM YO'NALISHINING QO'SHIMCHA «O'SISH NUQTALARI»

**Prezident Shavkat Mirziyoyev madaniyat va turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar va yangi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Avvalo, Samarqand shahrida 9 gektar maydonda yangi Ipak yo'li muzeyini barpo etish rejasini qo'ldan chiqardi. Loyihaga ko'ra, ushbu muzey ekspozitsiyasi arxeologiya, tasviriy san'at, amaliy san'at materiallarini qamrab olgan 6 mingdan ziyod noyob eksponatlarni birlashtiradi. Muzeyda doimiy va vaqtincha ko'rgazmalar uchun ekspozitsiyalar, 160 o'rinni auditoriya, bolalar akademiyasi, konservatsiya va tadqiqot markazi, katta hajmli saqlov xonalari ham tashkil qilinadi.

Taqdimotda aholini madaniyat muassasalariga keng jalb qilish, ularning mazmun-mohiyati va ish uslubini zamon talablari asosida yangilash masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Shu munosabat bilan respublikadagi 839 ta madaniyat markazini bosqichma-bosqich transformatsiya qilish, binolarini zamonaviy qiyofaga keltirish, faoliyatiga xususiy sektorni jalb qilish, bu borada jozibadorlikni oshirish bo'yicha takliflar muhokama qilindi. Umuman, 2030-yilga qadar madaniyat sohasiga 1 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirilishi belgilandi.

San'at sohasida iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularni quyi sinflardan maqsadli

o'qitish, o'qish joyida yashab ta'lim olishi va ijod bilan shug'ullanishi uchun munosib sharoit yaratish muhim vazifa sifatida belgilandi.

Andijon yoshlar simfonik orkestri hamda "Tumor" raqs ansambli faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bildirilgan takliflar ma'qullandi.

Mediamakonda milliy kontentlarni ko'paytirish, sun'iy intellektdan oqilona foydalangan holda milliy madaniyatimiz haqida ma'lumotlar bazasini kengaytirib borish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, nodavlat madaniyat tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, nodavlat teatr va teatr-studiyalarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ularga loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar ajratib borish tizimi joriy etilishi belgilandi.

Shu yil boshidan mamlakatimizga 3 millionga yaqin sayyohlar kelib, o'sish sur'ati 37 foizni, turizm xizmatlari eksporti esa 48 foiz o'sib, 1,1 milliard dollarga yetgani qayd etildi. 2030-yilga qadar 20 million xorijiy sayyohni jalb qilish, 2026-yilda esa 12 million turistga xizmat ko'rsatish maqsad qilingan.



## POYTAXTDA MAXSUS INVESTITSIYA VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev Toshkent shahri iqtisodiyotida yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, mavjud zaxiralarni to'liq ishga solish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay sharoitlar yaratish yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.**

Yig'ilishda bugungi kunda jahondagi siyosiy va harbiy ziddiyatlar, tashqi bozorlardagi o'zgarishlar eksport zanjirlari va mahsulot yetkazib berish muddatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ta'kidlandi. Bunday sharoitda qo'shimcha zaxiralarni aniqlab, ularni tezkor ishga solish ustuvor vazifa ekanini ko'rsatib o'tildi.

Poytaxt milliy iqtisodiyotda alohida o'rin tutishi qayd etildi. Bugungi kunda Toshkent shahri yalpi ichki mahsulotning 21 foizini ta'minlamoqda. Joriy yil "Poytaxtda jadal rivojlanish va aholi daromadlari o'sishi yili" deb e'lon qilinib, shahar iqtisodiyotini 12 foizga oshirish, 3,6 milliard dollarlik eksportni ta'minlash, 9 milliard dollar

investitsiya jalb qilish va 616 ming aholi bandligini ta'minlash kabi katta marralar belgilangan.

Shu munosabat bilan shahar hokimligi, uning 12 nafar o'rinbosari va 12 ta tuman hokimi proaktiv ish tashkil qilib, sanoat, eksport, investitsiya va turizm sohasidagi ehtimoliy pasayishlarning oldini olishi zarurligi ta'kidlandi. Prezidentimiz buning uchun poytaxtda mehnat resurslari ham, moliyaviy imkoniyatlar ham yetarli ekanini ta'kidladi.

Yig'ilishda joriy yil yangicha yondashuv asosida shaharning 12 ta tumani aniq bir sanoat yoki xizmat ko'rsatish tarmog'iga ixtisoslashtirilishi qayd etildi.



Parlament diplomatiyasi

## GLOBAL MIQYOSDA AYOLLAR HUQUQLARINI TA'MINLASH — BOSH MASALA

Turkiyaning Istanbul shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 152-assambleyasi o'z ishini boshladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O'zbekiston parlament delegatsiyasi 152-assambleya doirasida o'tkazilgan Parlament ayol a'zolari forumi hamda Qo'shimchilik harakati parlament tarmog'ining 5-konferensiyasida ishtirok etdi.

Forum "Nizolarning kuchayishi hamda ayollar va qizlar huquqlarining qisqarishi" mavzuga bag'ishlanib, unda global nizolar sharoitida xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash, ularning ta'lim olish, sog'liqni saqlash va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Ta'kidlandiki, O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Mamlakatimizda ayollarning ta'lim olishi, iqtisodiy faolligini kuchaytirish hamda qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan qonunlar imzolani, tizimli dasturlar amalga oshirilmoqda. Mazkur yondashuv forum qatnashchilari tomonidan ilg'or tajriba sifatida e'tirof etildi.



Konferensiya

## AMIR TEMUR TARIXIY MEROSI — KUCHLI DAVLAT VA TARAQQIYOT ASOSI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida "Amir Temur: kuchli davlat barpo etish fenomeni, tarixiy meros va zamonaviy taraqqiyot" mavzuida parlament konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Qonunchilik palatasi tashabbusi bilan uyushtirilgan tadbirda deputatlar, olimlar, Parlament tadqiqotlari instituti xodimlari, Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Konferensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad — buyuk davlat arbobi Amir Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi boy tajribasini chuqur o'rganish, tarixiy merosini zamonaviy davlat boshqaruvi va uning huquqiy

asoslarini mustahkamlashga uyg'un holda tahlil qilish.

Konferensiyani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov kirish so'zi bilan ochib, keyingi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan Amir Temur va temuriylarning boy merosiga yuksak ehtirom ko'rsatish, uni tadqiq etish, yurtimiz va xalqaro miqyosda keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilayotganini ta'kidladi.



## ARMIYAMIZ NUFUZI YANADA OSHIRILIB, VATAN HIMOYACHILARI HAR TOMONLAMA QO'LLAB-QUVVATLANADI

Shuningdek, bu kunda urush qatnashchilari, front orti mehnat faxriylari, keksalar va ustozlarga hurmat-ehtirom ko'rsatish, yolg'iz va kam ta'minlangan faxriylarning turarjoylarini obodonlashtirish, turli xotira va qadrlash tadbirlarini tashkil etish rejalashtirilgan. Mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan Vatan fidoyilarining xotirasi ham ulug'lanadi. Ularning oila a'zolariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatiladi.

Ona Vatanimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi yo'lida jon fido qilgan harbiy xizmatchilarning mardligi va jasoratini targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-vatanparvarlik tadbirlari o'tkaziladi. Mamlakatimiz bo'ylab "Burch, jasorat, matonat!" shiori ostida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, uch avlod uchrashuvlari, ijodiy kechalar, tanlovlar va ommaviy sport musobaqalari tashkil etiladi.

Taqdimotda rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar ham ko'rib chiqildi. Qayd etilganidek, dunyoda yuz berayotgan harbiy mojarolar tahlili urush davridagi safarbarlik ehtiyojlaridan kelib chiqib, tinchlik davrida harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan ofitserlar zaxirasini shakllantirish va ularni mutaxassisliklar bo'yicha to'g'ri taqsimlash dolzarb vazifa ekanini ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda 4 ta oliy ta'lim va 2 ta oliy harbiy ta'lim muassasasining harbiy tayyorgarlik o'quv markazlari va fakultetlarida 42 ta mutaxassislik bo'yicha rezerv va zaxiradagi ofitserlar tayyorlanmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda Urganch, Termiz, Andijon davlat universitetlari, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti hamda Andijon davlat tibbiyot institutida

yana 5 ta harbiy tayyorgarlik o'quv markazini tashkil etish taklif qilindi.

Shuningdek, davlat oliy ta'lim muassasalarida qo'shimcha ravishda "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 3 yillik bakalavriat ta'limi asosida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Harbiy tibbiyot institutida esa ilk bor klinik ordinatura va magistraturaga qabul qilingan hamda harbiy tayyorgarlikdan o'tish istagini bildirgan talabalar to'lov-shartnoma asosida o'qitiladi. Bunday imkoniyat nodavlat oliy ta'lim muassasalar talabalar uchun ham yaratiladi.

Bugungi kunda dolzarb bo'lgan sun'iy intellekt, dron, robototexnika kabi zamonaviy va tor mutaxassisliklar bo'yicha ham zaxira ofitserlari tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari uchun ilg'or xorijiy armiyalar tajribasi asosida yangi o'quv reja va dasturlar ishlab chiqiladi.

Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Joriy yil 13-yanvar kuni Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashi yig'ilishida mazkur masala ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan edi.

Jumladan, Mudofaa vazirligi ofitserlariga xizmat yillari uchun to'lanadigan har oylik ustama miqdorini ikki baravarga oshirish, shartnoma bo'yicha xizmat qilayotgan oddiy askar va serjantlarning oylik pul ta'minotini 10 foizga ko'paytirish taklif qilindi.

Prezidentimiz takliflarni qo'llab-quvvatlab, ularning ijrosi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish, harbiy xizmat nufuzi va jobibadorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlab hamda tegishli hujjatlarni imzoladi.

## MADANIYAT VA TURIZM YO'NALISHINING QO'SHIMCHA «O'SISH NUQTALARI»

Endilikda har bir hududning o'ziga xosligidan kelib chiqib, uning turistik salohiyatini oshirish bo'yicha manzilli dasturlarni amalga oshirish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Shu maqsadda hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohani loyihaviy boshqaruv asosida tashkil etish choralarini ko'rib chiqildi. Xususan, 2026-2027-yillarda

hududlarda 31 ta master-rejani amalga oshirishni boshlash, 40 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratish, joylashtirish vositalari sonini 8 ming 250 taga, turizm qishloqlari va mahallalarining umumiy sonini 84 taga olib chiqish rejalashtirilgan.

Yangi sayyohlik mahsulotlarini shakllantirish va tadbirkorlarni asosida tashkil etish choralarini ko'rib chiqildi. Xususan, 2026-2027-yillarda

Jumladan, xorijiy turistlarni jalb qilishga qaratilgan targ'ibot xarajatlarning 25 foizgacha qismi, biroq 500 million so'mdan oshmagan qismi qo'llab berilishi, turistlar uchun madaniy-ommaviy va sahnalashtirilgan tomoshalarni tizimli yo'lga qo'ygan xususiy tadbirkorlarni rag'batlantirish, servis sohasidagi mahalliy va xorijiy mutaxassislar ishtirokida amaliy

o'quv kurslarini tashkil etish nazarda tutilgan.

Taqdimotda respublika turizm salohiyatini xalqaro bozorda keng targ'ib qilish bo'yicha ham yangi yondashuvlar ko'rib chiqildi.

Mutasaddirlarga muhokama qilingan loyiha va tashabbuslarni puxta ishlab chiqish, ularni aniq hisob-kitob va rejalar asosida amalga oshirish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

## POYTAXTDA MAXSUS INVESTITSIYA VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI UCHUN QULAY SHAROITLAR YARATILADI

Jumladan, Bektemir tumani kimyo sanoati va ulgurji savdoga, Mirzo Ulug'bek tumani kabel sanoati, ilm-fan, ta'lim va axborot texnologiyalariga, Mirotob tumani oziq-ovqat sanoati, turizm va umumiy ovqatlanishga, Uchtepa zargarlik, maishiy xizmat va chakana savdoga, Chilonzor farmatsevtika, savdo, xizmat ko'rsatish va sportga, Shayxontohur mebelsozlik va gastroturizmga, Yunusobod qog'oz sanoati va turizmga, Yashnobod elektrotexnika hamda transport-logistikaga, Yakkasaroy yengil sanoat va moliyaviy xizmatlarga, Yangiyo'q avtomobilsozlik va logistikaga, Olmazor qurilish materiallari sanoati va ta'limga, Sergeli esa metallurgiya, logistika va avtoservis sohasiga yo'naltiriladi.

Toshkent shahrida nostandart takliflar ishlab chiqish maqsadida oxirgi ikki hafta davomida 23 mingdan ziyod tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazilgan, 1 ming 300 dan ortiq muammolar aniqlangan, shuningdek, tadbirkorlar tomonidan 162 ta yangi taklif va tashabbus bildirilgan ma'lum qilindi. Bu taklif va muammolarning

birortasi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerakligi ta'kidlandi.

Shuningdek, poytaxtda maxsus investitsiya va ishbilarmonlik muhitini joriy qilish orqali yangi tajriba yaratilishi belgilandi. Jumladan, biznes uchun ruxsatnoma va litsenziyalarni berish vakolatini tegishli vazirlik va idoralardan ularning hududiy bo'linmalariga tushirish, eksportchi korxonalarini qo'llab-quvvatlashning yangi yondashuvlarini joriy etish, tadbirkorlarning logistika bilan bog'liq muammolarini tezkor hal qilish tizimini yo'lga qo'yish, aylanma mablag' bilan ta'minlash va biznesni kengaytirish uchun qulay shartlarda yangi moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish nazarda tutilganini qayd etildi.

Tadbirkorlar ko'targan muammo va takliflarni tezkor hal qilish uchun alohida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzish taklif qilindi. Uning zimmasiga tumanlarni drayver sohalari asosida rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy konyunkturani doimiy monitoring qilish, "o'sish nuqtalari" va foydalanilmayotgan zaxiralarni aniqlash, tizimli to'siqlarni bartaraf etish, g'oya va tashabbuslarni shakllantirish,

ularni moliyalashtirish va ijrosini nazorat qilish vazifalari yuklanadi.

Umuman, barcha imkoniyatlarni safarbar qilib, qo'shimcha 88 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarish, 4,9 milliard dollarlik eksportni ta'minlash va 5 milliard dollar investitsiya jalb qilish, byudjetga 2,9 trillion so'm tushum ta'minlash, 65,5 mingta yuqori daromadli va doimiy ish o'rnini tashkil etish bo'yicha aniqlangan yangi zaxiralarni ishga solish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, joriy yilda Toshkent shahriga qo'shimcha 500 million dollar jalb qilish maqsadida poytaxt yevrobondlarini chiqarish taklif qilindi.

Poytaxt tadbirkorlarini Toshkent, Navoiy, Qashqadaryo, Andijon, Buxoro va Farg'ona viloyatlaridagi yirik sanoat korxonalarini bilan bog'lab, mahalliy lashtirish va kooperatsiyani kengaytirish bo'yicha dastur tasdiqlash topshirildi.

Kelgusida yirik xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb etgan holda Toshkent shahri iqtisodiyotini chuqur tahlil qilish va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

O'ZA.

## GLOBAL MIQYOSDA AYOLLAR HUQUQLARINI TA'MINLASH — BOSH MASALA

Shu bilan birga, global miqyosda ayollar huquqlarining poymol qilinishi, gender zo'rovonlik, odam savdosi va majburiy nikoh kabi tahdidlarga qarshi kurashish hamda ularning oldini olishda parlamentlar olidida turgan ustuvor vazifalar yuzasidan tashabbuslar ilgari surildi.

O'zbekiston tomoni xotin-qizlar huquqlarini ilgari surish borasida xalqaro hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanini bildirilib, ishtirokchilar Buxoro shahrida joriy yilning 14-15-may kunlari bo'lib

o'tadigan Osiyo xotin-qizlari ikkinchi forumiga taklif etildi.

"Qo'shimlaslik harakati mintaqasida iqlim o'zgarishiga bardoshli urbanizatsiyani ta'minlashda parlamentlar roli" mavzuga bag'ishlangan Qo'shimlaslik harakati parlament tarmog'ining 5-konferensiyasida esa shaharlar misli ko'rilgan sur'atlarda rivojlanayotgan bir sharoitda global iqlim muammolariga yechim topish, ularning oldini olishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish hamda uning ijrosi ustidan

samarali parlament nazoratini ta'minlash masalalarini muhokama qilindi.

Tadbirda zamonaviy huquqiy asoslarni shakllantirish, iqlim siyosatining amalga oshirilishi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish, "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi.

Shuningdek, parlamentlar nafaqat qonun ijodkorligi jarayonida, balki uzoq muddatli davlat siyosatini shakllantirish, byudjet

qo'llab-quvvatlovini ta'minlash hamda milliy va xalqaro darajada hamjihatlikni ilgari surishda muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

Konferensiya yakunida ishtirokchilar Qo'shimlaslik harakatiga a'zo davlatlarning iqlimga bardoshli, xavfsiz va inklyuziv urbanizatsiyani ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Shuningdek, parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha yakdillik fikr bildirildi.

"Xalq so'zi".

## O'ZARO ALOQALAR RIVOJI TAHLIL MARKAZLARI NIGOHIDA

Ostona shahrida 2024-yilning sentabr oyida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo + Germaniya" sammitida Prezidentimiz ushbu davlatlarning tahliliy markazlari forumini ta'asis etish hamda uning birinchi uchrashuvini Xiva shahrida o'tkazishni taklif qilgan edi.



### Anjuman

Ushbu tashabbus asosida 16-17-aprel kunlari Xiva shahrida "O'zgaruvchan dunyoda strategik hamkorlik" mavzuidagi anjuman tashkil qilindi. Unda Germaniya va Markaziy Osiyo davlatlarining yetakchi tahlil markazlari rahbarlari, nufuzli ekspertlar, ilmiy va ta'lim doiralari hamda biznes hamjamiyati vakillari qatnashmoqda.

Forumning ochilish tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Arpov, viloyat hokimi Jo'rabek Rahimov va boshqalar so'zga chiqdi.

Ushbu forum aynan Xiva shahrida o'tkazilayotgani bejiz emas, deydi Konrad Adenauer nomidagi jamg'armaning Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy vakili Andre Algermissen. — Chunki tarixdan ma'lumki, 1882 — 1937-yillarda Xorazmda nemis mennonitlarining katta jamoasi yashagan va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy

rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Mustaqillik yillarida mintaqamamlakatlari va Yevropa Ittifoqining asosiy ishtirokchilaridan biri bo'lgan Germaniya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad "Markaziy Osiyo + Germaniya" formatini tahliliy qo'llab-quvvatlashga ko'maklashadigan doimiy faoliyat yurituvchi ekspertlar platformasini ishga tushirishdan iborat.

Anjuman doirasidagi muhokamalar, qizg'in munozaralar Markaziy Osiyo davlatlari va Germaniya o'rtasida siyosiy mulohotni chuqurlashtirish, iqtisodiy kooperatsiya hamda sanoat sherikligini rivojlantirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, shuningdek, akademik almashinuvlar va uyushgan mehnat migratsiyasini qo'llab-quvvatlash kabi muhim masalalarni samarali hal etishga xizmat qiladi.

Odilbek ODAMBOYEV ("Xalq so'zi").

## AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHGA QARATILGAN BUNYODKORLIK



Bu esa sohada xususiy sektor faolligi ortib borayotgan dalolat bermoqda.

### Qamrov darajasi kengaydi

Kommunal xizmatlar tizimida issiqlik ta'minoti alohida o'rin tutadi. Bu yo'nalishda keyingi vaqtda ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganini qayd etish o'rinli. Jumladan, respublika bo'yicha 16 610 ta ko'p kvartirali uy va 2 543 ta ijtimoiy soha obyekti markazlashgan issiqlik ta'minotiga ulangan. Masalan, 2025-yil aprel oyi holatiga nisbatan qiyoslaganda, 2026-yilda qo'shimcha ravishda 581 ta uy va 292 ta ijtimoiy obyekt ushbu tizim bilan qamrab olindi. Bu aholini uzluksiz issiqlik manbai bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Mavridi kelganda aytish

kerakki, birgina tizim infratuzilmasi 525 ta qozonxonona va 3 710 kilometr issiqlik tarmoqlarini o'z ichiga oladi. O'tgan yilning o'zida 63 ta yangi qozon o'rnatilgan ham faoliyat ko'lamini yanada kengaytirdi. Shuningdek, energotejamkor texnologiyalar joriy etilishi hisobiga 13,8 mln. kubometr tabiiy gaz va 15,2 mln. kilovattsoat elektr energiyasi iqtisod qilangani diqqatga sazovor.

— Ichimlik va oqova suv tizimlarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan ishlar ham aholining hayot sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda, — deydi Ozoda Jo'rayeva. — Ochig'i, ilgari ichimlik va oqova suv ta'minoti bilan bog'liq masalalar yuzasidan aholi murojaatlari ko'payib ketgan, bu infratuzilmaning eskirgan va

ta'minotdagi uzilishlar bilan bog'liq edi. E'tiborli jihati, so'nggi yillarda ichimlik va oqova suv tarmoqlari hamda yangi inshootlar qurilib, rekonstruksiya qilinishi natijasida aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi qariyb 20 foizga oshdi. Bu yo'nalishda yangi loyihalarni ko'rsatki ichi 85 foizga yetkazish ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, oqova suv xizmatlari bilan qamrov darajasi



21,8 foizni tashkil qilib, ushbu yo'nalishda ham infratuzilmani kengaytirish ishlari ichkil davom ettirilmoqda. Xususan, joriy yilda 883,8 kilometr tarmoqlar va o'nlab inshootlar qurilishi uchun 1,188 trln. so'm mablag' ajratilgan shundan dalolat beradi.

### Raqamlashtirish samarasi

Uy-joy va kommunal xizmat sohasi raqamlashtirilayotgani aholi murojaatlari asosida yuzaga kelgan muammolarni tezkor bartaraf qilish imkonini bermoqda.

Shu jihatdan "Mening uyim" billing tizimi joriy etilgan ko'plab xonadonlarga qo'shimcha qulayliklar yaratdi.

"Xavfsiz lift" platformasining ishga tushirilgani ham ko'plab aholi vakillari tomonidan katta mamnuniyat bilan kutib olindi.



E'tiborli jihati shundaki, bu platforma orqali 17 mingga yaqin lift uskunalari doimiy nazoratga olingan. Shuningdek, "Turar joy" milliy axborot tizimi bilan aholi doimiy aloqada. Ularning har bir qo'ng'irog'i asosida muammolar joyida hal etilmoqda. Xususan,

Faxriddin BOZOROV ("Xalq so'zi").

## SHERIKLIK MUNOSABATLARI RIVOJLANTIRILADI

Oliy Majlis Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev Italiya Respublikasi Parlamenti Deputatlar palatasi deputati, "Italiya - Markaziy Osiyo" parlamentlararo hamkorlik guruhi rahbari Fabritsio Bensoni boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

## Hamkorlik

Muloqot davomida O'zbekiston bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollariga e'tibor qaratildi.

Tomonlar parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash, qonun ijodkorligi sohasida tajriba almashish va o'zaro manfaatli tashabbuslarni ilgari surish masalalariga urg'u berdi.

Suhbat chog'ida parlamentlararo hamkorlik guruhlarini faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish, ular o'rtasida

muntazam muloqotni ta'minlash, qo'shma harakatlar rejasini ishlab chiqish bo'yicha takliflar ilgari surildi.

Shuningdek, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi sheriklikni kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

## Uchrashuv

## O'QISH VA IZLANISH – MUVAFFAQIYAT GAROVI

Ertamiz egallari bo'lgan yoshlar bandligini ta'minlash va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan. Shu nuqtayni nazardan, Oliy Majlis Senati a'zolari ham yigit-qizlar bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazmoqda.

Xususan, payshanba – Yoshlar kuni munosabati bilan poytaxtimizning Bektemir tumanida navbatdagi ochiq muloqot tashkil qilindi. Unda Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov, Harbiy prokuror o'rinbosari hamda tuman hokimi ishtirok etdi.

Muloqot davomida yoshlar bandlik, ta'lim, tadbirkorlik va harbiy xizmat bilan bog'liq qator masalalar ilgari surdi. Har bir murojaat tegishli mutasaddirlar tomonidan diqqat bilan tinglab, ularni hal etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Ta'kidlanganidek, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlash va jamiyatda munosib o'rin egallashiga ko'maklashish davlatimiz e'tibor markazida.

Tadbir davomida iqtidorli yoshlar rag'batlantirildi. Xususan, xalqaro ingliz tili imtihoni – "IELTS"dan 7,5 va undan yuqori ball to'plagan yoshlarga esdalik sovg'alari topshirildi. Bu esa yoshlarning bilim olishga bo'lgan intilishini yanada oshirishi, yangi yutuqlarga ilhomlantirishi bilan ahamiyatidir.

Xuddi shunday uchrashuvlardan biri Farg'ona viloyatidagi Lola Murotova nomli qishloq xo'jaligiga ixtisoslashtirilgan texnikumda ham o'tkazildi. Unda Senatning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova hamda xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, Yoshlar parlamenti a'zolari, Yoshlar maslahat guruhi vakillari ishtirok etdi.

Uchrashuvda yigit-qizlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani, yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, ularni sifati ta'lim bilan qamrab olish, zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka keng jalb etish ustuvor vazifalardan ekani ta'kidlandi.

Senator yoshlar bilan muloqotda tadbirkorlik asosini, yaratilayotgan imkoniyatlar va o'z ustida ishlashning ahamiyati haqida fikr yuritdi. Shuningdek, u yoshlarni faol, tashabbuskor va mas'uliyatli bo'lishga chaqirib, mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish va aniq maqsadlar sari qat'iyat bilan intilish, albatta, o'z natijasini ko'rsatishini ta'kidladi.

Uchrashuvlar yakunida yoshlar tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish yuzasidan manzillik ishlar rejasini ishlab chiqiladigan bo'ldi.

"Xalq so'zi".

## SOHIBQIRON DAHOSIGA YUKSAK EHTIROM

Shu kunlarda mamlakatimizda buyuk davlat arbobi, mahoratli sarkarda va ilm-fan hamda madaniyat homiysi Amir Temur tavalludining 690-yilligi keng nishonlanmoqda. Ushbu muhim sanani davlatimiz rahbari tashabbusi bilan milliy va xalqaro darajada yuksak saviyada o'tkazish ko'zda tutilgan.

## Tadbir

Xususan, Prezidentimizning shu yil 5-fevraldagi "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohobqiron Amir Temur



tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori mazkur yo'nalishdagi ishlarida mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Unga muvofiq yuritmizda Amir Temurning boy ilmiy, ma'naviy va madaniy merosini chuqur o'rganish, uni keng targ'ib etish hamda yosh avlod ongiga singdirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, poytaxtimiz Toshkent shahrida joylashgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyining qisqa muddatda kapital ta'mirdan chiqarilishi, Amir Temur haykali atrofidagi xiyobonda amalga oshirilgan keng ko'lami obodonlashtirish ishlari, shuningdek, tarixiy shaxs siyosini ochib beruvchi badiiy va hujjatli filmlar yaratilishi ushbu sa'y-harakatning yorqin namunasi.

Yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan tadbirlarda Oliy Majlis Senati a'zolari, olimlar va jamoatchilik vakillari ham faol ishtirok etmoqda. Jumladan, aholi bilan uchrashuvlarda Amir Temurning davlatchilik an'analari shakllantirishdagi beqiyos o'rni, uning boshqaruvi tamoyillari va strategik fikrlash madaniyatini batafsil tushuntirilmog'ida.

Shuningdek, mahalliy va xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumalar doirasida Amir Temur merosi zamonaviy davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan qayta tahlil qilinmoqda. Xususan, Oliy Majlis Senatida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix instituti bilan hamkorlikda "Amir Temurning hayotiy saboqlari: muvaffaqiyat va kuch-qudrat manbai" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Anjumanda Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik asoslarini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, soliq tizimini takomillashtirish hamda ilm-fanni rivojlantirish borasida amalga oshirilgan islohotlar atroflicha yoritildi. Ushbu tarixiy tajriba bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyotida, jumladan, parlamentarizm va qonun ijodkorligi jarayonlarida muhim nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilayotgani alohida ta'kidlandi.

E'tiborlisi, "Temur tuzuklari"da ifodalangan adolat, insof, intizom va mas'uliyat tamoyillari bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish, mahalliy boshqaruvi rivojlantirish va inson qadriini ulug'lashga qaratilgan islohotlarda dolzarb ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro miqyosda ham Amir Temur shaxsi va uning davlatchilik merosiga bo'lgan qiziqish ortib bormog'ida. Qator xorijiy davlatlarda ilmiy konferensiyalar, ko'rgazmalar hamda madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu esa Amir Temurning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va nufuzi yanada yuksak e'tirof etilayotganidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekistonda Amir Temur nafaqat tarixiy shaxs, balki kuchli davlatchilik, adolati boshqaruvi va milliy faxr ramzi sifatida qadrlanmoqda. Uning boy merosi xalqimiz ma'naviy hayotida, davlat boshqaruvi tizimida hamda yosh avlod tarbiyasida mustahkam o'rin egallaydi.

Mazkur uyubey tadbirlari buyuk ajdodimiz xotirasini ulug'lash, uning merosini chuqur o'rganish va uni zamonaviy taraqqiyotga uyg'unlashtirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

## Senatorlar – hududlarda

## QONUNLARNING MAZMUN-MOHIIYATI TUSHUNTIRILMOQDA

Oliy Majlis Senati a'zolari 14-yalpi majlisida ma'qullangan qonunlar va muhokama qilingan masalalar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish yuzasidan hududlarda uchrashuvlar o'tkazmoqda.

Jumladan, Senatning Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova Xorazm viloyatining Bog'ot hamda Hazorasp tumanlarida bo'lib, xalq deputatlari mahalliy Kengashlar deputatlari, idora va tashkilotlar xodimlari bilan muloqot o'tkazdi.

Tadbir davomida yalpi majlisda ma'qullangan qonunlarning mazmun-mohiyati yuzasidan batafsil ma'lumotlar berildi. Ularning ahamiyati, amaliy natijalari hamda fuqarolar hayotida tutgan o'rni atroflicha tushuntirildi. Mazkur hujjatlarning ijrosini ta'minlash va ularni keng jamoatchilikka yetkazish masalalariga alohida urg'u qaratildi.

Shu bilan birga, Bog'ot tumanidagi 10 ming tomoshabiniga mo'ljallangan markaziy o'yngohni kapital ta'mirlash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar senator ishtirokida joyiga chiqqan holda

o'rganilganida qator kamchilik va muammolar mavjudligi aniqlandi.

Uchrashuvlar yakunida fuqarolar tomonidan ijtimoiy-maishiy masalalar yuzasidan bildirilgan murojaatlar tinglandi. Har bir murojaat jiddiy o'rganilib, ularni hal etish bo'yicha tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda aniq chora-tadbirlar belgilandi.

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha parlament komissiyasi a'zosi, Senatning Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi o'rinbosari Kobuljon Tursunov boshchiligidagi ishchi guruh Navoiy viloyatida ijtimoiy ahamiyatga molik masalalar yuzasida o'rganishlar olib bordi.

Xususan, Navbahor tumanining "Uchtut" mahalla fuqarolar yig'indagi 105 ta xonadonda

tomorqa yerlarini sug'orish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Shuningdek, "Qorovultepa" mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan Navoiy viloyati bolalar fiziaterapiya sihatgohida sog'lomlashtirish jarayonlari o'rganildi. Xususan, bolalarning jismoniy mashg'ulotlar bilan muntazam shug'ullanishi uchun yaratilgan sharoitlar, ularning reabilitatsiyasi va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan infratuzilma holati tahlilga tortildi.

Bundan tashqari, "Paxtakor" mahalla fuqarolar yig'ini qo'llab-quvvatlash uchun ijtimoiy ko'makka muhtoj oilaning yashash sharoitini yaxshilash bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish masalalari ko'rib chiqildi.

O'rganishlar yakuni bo'yicha aniqlangan muammolarni bartaraf etish, aholiga munosib turmush sharoitini yaratish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.



## Mamlakatimiz milliy rivojlanishning yangi bosqichi – Uchinchi Renessansga qadam qo'yayotgan, jamiyatning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning noyob merosini chuqur o'rganish, yurtimiz va jahonda keng ommalashtirish muhim ahamiyatga egaligi qayd etildi.

Yurtimizda Prezidentimizning tashabbusi bilan bu yo'nalishda tizimli ishlar amalga oshirilayotganiga to'xtalib o'tildi. Jumladan, davlatimiz rahbarining "Buyuk davlat arbobi va sarkarda, ilm-fan, madaniyat va san'at homiysi Sohobqiron Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, har yili aprel mamlakatimizda

"Amir Temur" oyiligi sifatida e'lon qilinib, mahalliy va xalqaro miqyosda ko'plab tadbirlar, muloqotlar, uchrashuvlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etilishi ko'zda tutildi.

Shuningdek, buyuk ajdodimizning davlat boshqaruvi va qaror qabul qilish madaniyatiga oid merosini ilmiy asosda o'rganish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Mazkur qaror ijrosi doirasida Qonunchilik palatasi ham qator tadbirlar rejasini belgilab olgan. Mazkur konferensiya ana shunday tadbirlarning biri sifatida deputatlar, olimlar, yoshlar, ekspertlarni fikr almashish va munozaralar davrasiga jamladi.

Tadbir davomida Amir Temur davlatchiligida kuchli boshqaruvi va adolat tamoyillari, milliy davlatchilik va qonunchilik an'analari, zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, tarixiy merosning bugungi islohotlar jarayonidagi ahamiyati kabi dolzarb masalalar muhokama qilindi.

Shu bilan birga, ochiqlik, mas'uliyat va jamoaviy muhokama kabi tamoyillar Amir Temur davlati boshqaruvida muhim o'rin tutgani qayd etildi. Bu jihatlar bugungi kunda parlamentarizmi rivojlantirishga qaratilgan islohotlar jarayoni bilan hamohang ekaniga urg'u berildi.

Tadbirda Amir Temurning davlat boshqaruvi tajribasini chuqur o'rganish, uni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish hamda amaliyotga samarali tatbiq etishda siyosiy partiyalar fraksiyalari, qo'mitalar va deputatlar oldidagi ustuvor vazifalar aniq belgilab olindi.

Shuningdek, deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlarida Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlashga qaratilgan qarorga muvofiq, belgilangan vazifalarning mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish zarurligi ta'kidlandi.

Konferensiyada so'zga chiqqan deputatlar, olimlar buyuk davlat arbobi, Ikkinchi Uyg'onish davri – Temuriylar Renessansi bunyodkori Amir Temur milliy davlatchiligimiz tarixida beqiyos o'rin tutishini ta'kidlab, yosh avlod vakillarining buyuk tariximiz haqidagi bilimlarini muntazam oshirib borish lozimligini qayd etdi.

## So'z – ishtirokchilarga


Nodir JUMAYEV, Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi raisi:



– Prezidentimizning Amir Temur tavalludining 690-yilligini keng nishonlashga qaratilgan qarori asosida turli konferensiyalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilinmoqda. Bugungi konferensiya ham ana shu yo'lidagi yana bir amaliy qadam bo'ldi. Bu temuriylar boy merosini o'rganish, ilmiy natijalarni keng targ'ib qilish borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugun Yangi O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lini belgilayotgan bir paytda biz tarixga orqaga qarash uchun emas, oldinga yurish uchun murojaat qilamiz. Chunki tarix faqat o'tmish haqidagi fan emas, balki bugungi qarorlar uchun o'lchovidir. Amir Temur davri shu ma'noda biz uchun ayni mezonlarni beradi. Bular oddiy ko'rinishda, ammo har biri davlat taqdirini hal etadi. Davlat ilmga tayanadi, jamiyat ta'lim bilan yuksaladi, hokimiyat adolat bilan mustahkamlanadi. Bu esa bugungi kunda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ortga qaytmas islohotlarga hamohangdir.


Shuhrat YAKUBOV, Qonunchilik palatasi deputati:



– Amir Temur davlatchiligining muvaffaqiyatini tushunish uchun uning faqat harbiy yurishlari yoki siyosiy g'alabalariga emas, balki davlat boshqaruvi madaniyatiga, xususan, qaror qabul qilish mexanizmi e'tibor qaratish lozim. Chunki har qanday kuchli davlat, avvalo, to'g'ri va adolatli qarorga kelish tizimiga tayanadi.

Sohobqiron tomonidan shakllantirilgan bunday tizimning asosini qurultoy, kengash va mashvarat instituti tashkil etgan bo'lib, ular o'zaro uyg'un holda ishlagan mukammal siyosiy mexanizmni ifodalaydi. "Temur tuzuklari"da yozilganidek, Amir Temur davlatni boshqarishda kengash va maslahatga katta e'tibor bergan. "Davlat ishlarining to'g'ri ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilib bilan bajo keltirilur." Bu shuni anglatadiki, buyuk ajdodimiz merosida xalq bilan muloqot ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan. Bugungi O'zbekistonning zamonaviy davlatchiligida ayni mana shu qadriyatlar o'z aksini topmoqda.

Muqaddas AHMEDOVA, Qonunchilik palatasi deputati:



– "Temur tuzuklari" Amir Temurning o'z mamlakatini boshqarish va davlat ishlarini tartibga solishdagi prinsiplari, huquqiy normalari hamda amaliy ko'rsatmalari bo'lib, bu asarda davlatning ma'muriy, harbiy va huquqiy tizimlari to'liq namoyon etilgan.

"Temur tuzuklari" – bu oddiy qoidalar emas, balki davlat va jamiyat hayotini tartibga soluvchi mukammal huquqiy tizim. Bu tuzuklarda eng muhim tamoyil – adolat va inson manfaatini hisoblanadi. Masalan, yangi yerni obod qilgan shaxsdan birinchi

yil soliq olinmasligi, soliqlar yer unumdorligiga qarab belgilanishi, davlat avval sharoit yaratib, keyin talab qo'yishi kabi adolatli tizim amalda bo'lgan. Bu normalarda zamonaviy ijtimoiy g'oyalarni ko'rish mumkin.

Shu bois Amir Temurning tuzuklari, nafaqat tarixchilar, balki siyosatchilar, huquqshunoslar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Feruza MUHITDINOVA, Toshkent davlat yuridik universiteti professori:




– Parlament konferensiyasi tarixchilar, olimlar va huquqshunoslarni bir davraga jamlab, boy tarixiy merosimizni chuqur o'rganish, bu borada yangi marralarni belgilash va natijalarga erishish uchun birgalikda, bahamjihat harakat qilishimiz uchun yaxshi imkoniyat bo'ldi.

Amir Temur tomonidan barpo etilgan davlat boshqaruvi tizimida qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, javobgarlik muqarrarlari va xalq manfaatlarini himoya qilish kabi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etgan. Bu g'oyalari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham o'z ifodasini zamonaviy shakl va mazmun bilan topmoqda.

Yana bir muhim masala. Amir Temur davlatida inson qadri yuksak e'tirof etilgan, jamiyatning turli qatlamlari huquq va manfaatlari himoya qilingan. Har bir toifaning huquq hamda majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan, ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bu esa davlat boshqaruvida ijtimoiy adolat va muvozanat ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Shu bois Sohobqiron merosini chuqur o'rganish va uni yoshlar ongiga singdirish huquqiy davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim omil hisoblanadi.

Otabek SOBITOV, Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi:



– Mazkur konferensiya biz, yoshlar uchun ham ahamiyatli bo'lib, bilimlarimizni yanada mustahkamlashga zamin yaratadi. Temurshunos olimlar va xalq vakillaridan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni, boy tarixiy merosi haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ldik.

Amir Temur davlat boshqaruvida adolat va qonun ustuvorligini muhim tamoyil sifatida belgilagan. Uning "Temur tuzuklari" asarida davlat boshqaruvi, hokimiyat va xalq o'rtasidagi munosabatlarni, harbiy hamda ma'muriy tizim asoslarini muvofiq bayon etilgan. Shu bilan birga, Sohobqiron o'z qo'shinida qat'iy intizom o'rnatib, vatanparvarlik ruhini mustahkamlagan. Askarlar sadoqat va jasorat ruhida tarbiyalangan, harbiy strategiya hamda taktikaning puxta yo'lga qo'yilgani uning yirik g'alabalariga zamin yaratgan.

Amir Temur davrida shakllangan qadriyatlar – adolat, ilm-fanga hurmat, madaniyat va san'atga e'tibor, vatanparvarlik hamda insonparvarlik bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu bebaho meros yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda, jamiyatni rivojlantirish va milliy qadriyatlarini asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Matbuot xizmati.

# SPORT — SOG'LOM XALQ, SOG'LOM JAMIYATNING TAYANCH USTUNI

Har bir mamlakat hayotida muhim o'rin tutuvchi sport sohasi rivoji bugungi kunda har doimgidan ham dolzarb. Shu bois yurtimizda jismoniy tarbiya va sport masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ko'lamlari islohotlar amalga oshirilayotir. Sportga bo'lgan yuksak e'tibor tufayli keyingi yillarda tarixiy natijalar qo'lga kiritilmoqda.

## Nuqtai nazar

Oxirgi to'qqiz yilda 1,5 mingdan ziyod mahallalarda zamonaviy sport maydonchalari qurildi. Hududlarda yuzlab yirik sport inshootlari, minglab xususiy sport klublari ish boshladi. Sport bilan professional shug'ullanuvchi yoshlar soni ham shunga yarasha oshib borayotir. Birgina o'tgan yilda sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda 452 ta oltin, 418 ta kumush va 501 ta bronza medalni qo'lga kiritdi. Ularning 50 nafardan ziyodi jahon va Osiyo rekordlarini yangiladi.

## Dolzarb masalalar muhokamasi

Sport mamlakatni butun dunyoga tanitishi bilan birga, jamiyatda sog'lom hayot tarzini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Zero, sog'lom turmush sog'lom kelajak garovidir. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, har bir inson, har bir ota-onaning orzusi va niyati jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash. Bunga esa jismoniy tarbiya va sport siz erishib bo'lmaydi. Bir so'z bilan aytganda, sport — sog'lom xalq, sog'lom jamiyatning tayanch ustuni.

Yaqinda davlatimiz rahbari raisligida jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish, aholini ommaviy sportga keng jalb etish, seleksiya tizimini takomillashtirish hamda ta'lim



muassasalarida sport muhitini kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida muhim va dolzarb masalalar ko'tarildi.

Yoshlar tarbiyasi, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda sportning ahamiyatini oshirishga xizmat qiluvchi aniq mexanizmlar ishlab chiqishni o'z ichiga olgan yig'ilishda ilgari surilgan tashabbuslar nafaqat mavjud yutuqlarni mustahkamlash, balki tizimdagi kamchiliklarni ochiq tan olib, ularni bartaraf etishga qaratilgan bilan e'tiborga molik.

Ta'kidlanganidek, oliy ta'lim muassasalarida sport yo'nalishidagi faoliyatni yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Bugungi kunda ayrim oliy ta'lim muassasalarida sport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan, mavjud sport inshootlaridan samarali foydalanish darajasi pastligiga qolishi, talabalarni sportga jalb etish tizimi ko'p hollarda formalikka aylanib qolayotgani, musobaqalar muntazam emasligi yoki keng qamrovli tashkilash tirilmayotgani ham muammolardan biridir.

E'tibor qaratilgan yana bir jihat shundaki, sport federatsiyalarining oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlikda

ishlamaligi iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ularni professional sportga yo'naltirish imkoniyati pasayishiga sabab bo'layotir.

Shuningdek, iqtidorli talabalar bilan individual ishlash masalasida ham kamchiliklar mavjud. Xususan, yuqori natijalarga erishish salohiyatiga ega bo'lgan yoshlar uchun individual murabbiylar birkirish tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Bu esa ularning professional darajada o'sishiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Holbuki, zamonaviy sport tizimida har bir sportchi bilan individual yondashuv asosida ishlash eng muhim talab hisoblanadi. Bu kamchiliklar ochiq aytilib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan tashkilotga topshirildi. Bu tizimni yanada takomillashtirish, mavjud muammolarni bosqichma-bosqich hal qilishga imkon beradi.

Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralayotgan va aniq strategik yondashuv shakllanayotgan sport sohasida oliy ta'lim muassasalarining rolini kuchaytirish, ushbu jarayonda nafaqat ta'lim maskani, balki yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va iqtidorli sportchilarni yetishtirish markaziga aylinishi dolzarb vazifadir.

## Islohotlarga hamohanglik mas'uliyati

Prezidentimiz taklifiga ko'ra, "mahalla — maktab — sport muassasasi — oliygoh" uzviy tizimi asosida yoshlarni sportga jalb etish, iqtidorli sportchilarni aniqlash va ularni professional darajada tayyorlash bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etiladi.

Sport to'garaklari faoliyati kengaytirilib, ularga tajribali murabbiylar birkirtiladi, sport yo'nalishidagi talabalar esa dual ta'lim asosida amaliy murabbiylik faoliyatiga jalb etiladi. Shuningdek, "salomatlik balansini", "sog'lom hayot volontyorlari", "kross-fit" kabi zamonaviy yo'nalishlarni joriy etish tashabbuslari ham yoshlar o'rtasida sog'lom turmush madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Sport sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, ularni amaliyot bilan

va raqobatbardosh jamiyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan sport to'garaklarining o'rni muhim.

Buxoro davlat pedagogika instituti misolida oladigan bo'lsak, bugungi kunda oliy ta'lim muassasamizda faoliyat yuritayotgan talaba-yoshlar sport klubida futbol, voleybol, regbi-7, stol tennis, yengil atletika, gandbol, dzyudo, shaxmat-shaxka, badminton, xokkey, kurash kabi sport to'garaklari ishtirokchilari bo'lgan talabalarimiz o'tgan davr davomida jami 175 ta medalni qo'lga kiritdi. Ularning 11 tasi xalqaro turnirlarda, 16 tasi Osiyo chempionatlarida, 148 tasi respublika miqyosidagi musobaqalarda qo'lga kiritilgan medallardir.

Yoki yaqinda o'tkazilgan "Vazir kubogi" doirasida ilk bor tashkil etilgan qizlar o'rtasidagi chim ustida xokkey musobaqalarida talaba-qizlarimiz 3-o'rinni qo'lga kiritgani mazkur sport turi bo'yicha olib borilayotgan faoliyatning ilk natijasi, desak, ayni haqiqat.

Albatta, bu kabi yutuqlar barchamizni quvontirishi tabiiy, biroq sohani yanada rivojlantirish, yoshlarning sport turlari bilan muntazam shug'ullanishini yanada kengaytirish bundan buyon doimiy e'tibor markazida bo'ladi. Zero, yurtimizda ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarga hamohang tarzda faoliyat yuritish, yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga barchamiz mas'ulmiz.

**Bahodir MA'MUROV,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori,  
pedagogika fanlari doktori,  
professor.



integratsiya qilish, sport tibbiyoti, fiziolgiya, reabilitatsiya va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ham ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida sportchilarni faoliyatini tahlil qilish, mashg'ulot jarayonlarini optimallashtirish kabi zamonaviy yondashuvlarni joriy etish orqali ilmiy salohiyatni oshirishga alohida e'tibor qaratilishi aytiladi.

Sohada belgilab berilgan ustuvor vazifalar sog'lom, faol

## O'QITUVCHINING MAOSHI QANCHA?

O'qituvchining oylik maoshi qachon ming dollarga yetadi? Shu kabi savollarga endilikda o'rin qolmadi. Boisi kelajagimiz egalarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan fidoyi ustozlar bu dovonni allaqachon bosib o'tgan. Qanday qilib deysizmi?



## ИМКОНИЯТ

— Buning uchun faqat izlanish, o'z ustida ishlash, kasbiy mahoratni muntazam oshirib borish kerak, — deydi Andijon shahridagi Muhammad Yusuf nomli ijod maktabining tarix fani o'qituvchisi Sardorbek Jaloliddinov. — Masalan, milliy sertifikatga ega o'qituvchining oylik

maoshiga 50 foiz qo'shiladi. Agar xalqaro sertifikat bo'lsa, bu ko'rsatkich 75 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, maktab fondidan ustama ajratiladi. Shu tariqa oylik maoshi ortib boraveradi. O'zi ham ana shunday yutuqlarga erishgan S. Jaloliddinov bugungi kunda 3

ming AQSH dollariga teng miqdorda oylik maosh olmoqda. E'tiborlisi shundaki, u bilan bir jamoada faoliyat olib borayotgan 37 nafar o'qituvchidan o'n nafari kamida 2 ming dollar ekvivalentidagi maoshga ega. **Saminjon HUSANOV** ("Xalq so'zi").

# "SO'ZNI KO'ZGA SINGDIRIB O'QISHNING GASH TI BO'LAKCHA"

Svetlana Valentinovnaning onasi "Farhod" madaniyat saroyining xoreografiya to'garigiga boshlab kelganida u olti yoshda edi. Qarangki, qizaloqni xoreografiyadan ko'ra koshonaning uch qavatini egallagan kutubxona ko'proq o'ziga tortdi. Mashg'ulotlardan bo'shadi deguncha kutubxonaning o'quv zaliga oshiqadigan kutubxon qiz ko'p o'tmay raqsdan voz kechdi...

## Kitobxonlik

Mana, o'ttiz uch yildirki, Svetlana Jyoltikova uchun ushbu ma'rifat o'chog'i qadrdon maskanga aylangan. Bu orada o'rta maktab, Toshkentda oliy ta'lim muassasasini tugallab, o'ddiy kutubxonlikdan kutubxonaga rahbarligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

"Farhod" madaniyat saroyi — "Navoiy kon metallurgiya kombinati jamg'armasi" davlat muassasasining yirik madaniyat va ma'rifat o'choqlaridan biri. Ushbu maskanda badiiy havaskorlik, folklor-etnografik, milliy raqs va estrada san'ati jamoalari hamda guruhlari bilan birga yana bir qancha to'garak va klublar, markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Har kuni turli yoshdagi yuzlab yoshlar bu yerga qatnab, san'at sirlarini o'rganadi. Ushbu koshonaning shundoq yon eshigidan kirib chiquvchilar soni esa

undan ko'p bo'lsa ko'pdirki, aslo kam emas. Muassasa o'z mijozlariga taqdim etayotgan ma'naviy-ma'rifiy va intellektual boylik salmog'ini esa oddiy so'zlar bilan ifodalash mushkul.

— Kutubxonamizga 1972-yilda asos solingan, — deydi Svetlana Jyoltikova. — U madaniyat saroyining uch qavatida 2 ming kvadrat metr maydonni egallab, ikki o'quv zali hamda yetti bo'limdan iborat. Kitob fondimiz esa 220 ming nusxadan ko'proq. Ular, asosan, o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lib, badiiy, ilmiy va uslubiy adabiyotlar. Ko'plab kitoblarning bir nusxadan ekanini dastlab tarmoq kutubxonasi sifatida tashkil etilganimiz bilan izohlash lozim.

Kutubxonaga 15 ming nafarga yaqin o'zining doimiy kitobxonlariga ega. Ularning 42 foizini talaba va o'quvchi-yoshlar, 21 foizini esa ishlab chiqarish ishchilari-muhandislari tashkil etadi. Har kuni kitob zallarida 300 dan 500 nafargacha kitobxon mutolaa



bilan mashg'ul bo'lib, o'z bilim va dunyoqarashini kengaytiradi.

— Kutubxonamizda o'quv zallari 65 o'ringa ega, — deydi kutubxonaning kattalarga xizmat ko'rsatish bo'limi mudiri Aynura Razzoqova. — Shu sabab, doimiy kitobxonlarimiz uchun alohida jadval tuzilgan. Ayrim kunlari o'quv zallari gavjumligidan o'rin bo'shashini kutib qolganlar ham uchraydi.

Maskanda bolalar bo'limi alohida qavatni egallagan. Bu yerdagi mo'jaz o'quv zalidagi qulayliklar deyarli uy sharoitiga yaqinlashtirilgan. Shuningdek, kutubxonachilar har bir yosh kitobxon bilan, ayniqcha, u ilk bor kelayotgan bo'lsa, individual ravishda shug'ullanadi.

— Ayni jarayonda yosh kitobxonning qiziqishini bilishga harakat qilib, shu asosda unga adabiyotlarni tavsiya etamiz, — deydi S. Jyoltikova. — Bu juda muhim. Sababi, bola o'z qiziqishini qanoatlantiradigan, istagan axborot va ma'lumotiga ega bo'ladigan kitob olmasa, uning mutolaa ishtiyoqi so'nadi. Deylik, fantastika istab kelgan bolaga ertak kitob tavsiya etsangiz, uning ertaga konstruktorlikka qiziqishi so'nib qolishi mumkin.

Kutubxonada "Faol kitobxonlar" klubi tashkil etilgan bo'lib, u o'z atrofiga kessalik gashini surayotgan 27 nafar mehnat faxriysini birlashtirgan. Ular har oy yig'ilishib, o'z shaxsiy

kutubxonalaridagi kitoblarni almashishadi.

— Biz kitob tarbiyasini olgan avlodimiz, — deydi klub a'zosi Salima Xoldorova. — Bugungi avlod ko'proq telefon va ijtimoiy tarmoqlarning tarbiyasini olmoqda. Gazetalardan esa munajjim bashorati, turli skanvord, kriptogramma va hokazoni axtarishadi. Albatta, hammasi emas, lekin aksariyati. Bu tabiiyki, fikriy yalqovlikka olib keladi. Men ko'klamning go'zalligini, beg'ubor bolaligim kechgan qishloqlar tarovatini Chexov, Turgenev va Aytmatov asarlaridan topaman. Bunday paytlar beixtiriy shu asarlar qahramoniga o'xshashga harakat qilasan kishi. Ochig'i, buni internet berolmaydi. Harfni, so'zni ko'zga singdirib o'qishning esa gash ti bo'lak.

Kutubxonaning yana bir bo'limi kitoblarni ta'mirlash va restavratsiya qilish bilan shug'ullanadi. Ushbu bo'lim xodimlari keksa kitobxonlar beminnat tuhfaga etgan nodir kitoblarga ikkinchi hayot o't qilib. Ular orasida 1848-yilda chop etilgan kitoblarning borligini ushbu maskanga kitobxonlarning ehtiromi sifatida qabul qilmoq joiz.

**Temur ESHBOYEV** ("Xalq so'zi").

## MUSTAHKAM, YENGIL VA EKOLOGIK TOZA

Bugungi kunda havoning ifloslanishi, ayniqsa, zararli gazlarning ko'payishi va suvning og'ir metall hamda bo'yoqlar bilan zaharlanishi butun dunyo uchun katta muammo bo'lib qolmoqda. Mazkur masalalarni hal qilish uchun tabiatga zarar yetkazmaydigan, samarali va mustahkam materiallar juda zarur.



## Kashfiyot

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti hamda Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan yangi turdagi gibrid aerogel yaratildi. U "nanotsellyuloza" deb ataladigan, qayta tiklanadigan hamda ekologik toza xomashyo asosida tayyorlangan bo'lib, bu material tabiatga zarar qilmaydi.

Xo'sh, bu aerogel nimasi bilan muhim?

Olimlarning ta'kidlashicha, u juda g'ovak (ichida ko'p mayda teshikchalari bor) bo'lib, shu tuzilma ichida maxsus metall-organik birkimlar joylashtirilgan. Bu esa aerogelga zararli moddalarni o'ziga tez va ko'p miqdorda singdirib olish imkonini beradi. Qolaversa, havoni tozalaydi, aerogel havodagi zararli karbonat anhidrid (CO<sub>2</sub>) gazini ushlab qolishga qodir. Suvni ham tozalaydi. U sudvan og'ir metall ionlari va zararli bo'yoqlarni katta aniqlikda ajratib oladi.

Qurilish sohasida samarali izolyatsion material sifatida ishlatilishi mumkin. Tovush yutuvchi xususiyatga ega. Ya'ni uning nanog'ovakli tuzilishi tovush to'liqlarini samarali yutib, binolarda akustik komfortni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, issiqlikni ushlab qoladi. Aerogel juda past issiqlik o'tkazuvchanligiga ega bo'lgani sababli binolarda issiqlik yo'qotilishini kamaytiradi va energiya tejamoqligini oshiradi.

Yana bir xususiyati — zarbaga nisbatan mustahkam. Kompozit aerogel materiallari mexanik ta'sirlarga nisbatan barqaror bo'lib, konstruktsion elementlar mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi.

Mustahkam bo'lish bilan bir qatorda, material juda yengil, lekin ayni paytda yuqori haroratga ham chidamli.

"Xalq so'zi".

Shu yil may oyidan Toshkent va Yerevan o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlar boshlanadi.

## Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-142. 31 016 nuxsada bosildi. Hajmi — 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:  
Devonxonona 71-259-74-51; ko'tibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begumarov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatli muharrir H. Qarshiyev.  
Musahih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.40 Topshirildi — 02.10 1 2 3 4 5 6